

## OMONIMLARNI FARQLASH USULLARINING SUN'YIY INTELLEKT VA MASHINA TARJIMASIDAGI O'RNI

**Abdurahmanova Muqaddas Tursunaliyevna**

Filologiya fanlari nomzodi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

E-mail: [MParfi2005@yandex.ru](mailto:MParfi2005@yandex.ru)

### ANNOTATSIYA

Maqolada omonimlar, ularning tildagi o'rni va kompyuter amallarini bajarishda omonimlar bilan bog'liq muammolar tilga olingan. Sun'iy intellekt tizimi, ChatGPT sun'iy intellektining ingliz, turk, rus tillaridagi omonimlarni turli darajada farqlashi ko'rsatilgan va buning sabalari izohlangan. Omonimlarni kollokatsiy usulida farqlash hamda omonimlar uchun farqlovchi teglar tizimining ishlab chiqilishi tarjima muammolarini bartaraf etishda, shuningdek, matn tahlili uchun qo'llanadigan sun'iy intellektlar tizimini takomillashtirishda ahamiyatli ekanligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, ChatGPT, omonimiya, omonimlar, polisemiya, tuyuq, askiya, iyhom, tajnis, kollokatsiy, razmetka, teglash tizimi, kompyuter o'yinlari, tafakkur, idrok, fikrlash qobiliyati.

## РОЛЬ МЕТОДОВ ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ ОМОНИМОВ В ИСКУССТВЕННОМ ИНТЕЛЛЕКТЕ И МАШИННОМ ПЕРЕВОДЕ

**Абдурахманова Мукаддас Турсуналиевна**

кандидат филологических наук,

доцент Ташкентского государственного

университета узбекского языка и литературы

E-mail: [MParfi2005@yandex.ru](mailto:MParfi2005@yandex.ru)

### АННОТАЦИЯ

В статье упоминаются омонимы, их место в языке и проблемы, связанные с омонимами при выполнении компьютерных действий. Система искусственного интеллекта, ChatGPT, как было показано, в разной степени различает омонимы в английском, русском, турецком языках и объясняются причины результата. Было отмечено, что дифференциация омонимов с помощью словосочетаний, а также разработка системы дифференцирующих разметок для омонимов важны

для устранения проблем перевода, а также для улучшения системы искусственного интеллекта, используемой для анализа текста.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, ChatGPT, омонимия, омонимы, многозначность, туюк, аския, ийхом, таджнис, коллокаций, разметка, система тегов, компьютерные игры, мышление, восприятие, мышление.

## THE ROLE OF HOMONYMS DIFFERENTIATION METHODS IN ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND MACHINE TRANSLATION

**Abdurakhmanova Mukaddas Tursunalievna**

PhD, Associate Professor of the Tashkent state university of uzbek language and literature

E-mail: [MParfi2005@yandex.ru](mailto:MParfi2005@yandex.ru)

### ABSTRACT

The article mentions homonyms, their place in the language and the problems associated with homonyms when performing computer actions. The artificial intelligence system, ChatGPT, has been shown to distinguish homonyms in English, Turkish, and Russian to varying degrees and explains the reasons for this. It was noted that the differentiation of homonyms with the help of phrases, as well as the development of a system of differentiating labels for homonyms are important to eliminate translation problems, as well as to improve the artificial intelligence system used for text analysis.

**Keywords:** artificial intelligence, ChatGPT, homonymy, homonyms, ambiguity, tuyuk, φskia, quiet, tajnis, phrase, markup, tag system, computer games, thinking, perception, thinking.

Dunyo fani taraqqiyotida texnika asridan axborot asriga o'tildi. Internet butun dunyoda aksariyat aholi qatlamini axborot to'rlari orqali qurshab oldi. Axborot texnologiyalari rivojlandi. Texnika, informatika inson tomonidan berilgan buyruqlarni bajarishdan ongli ravishdagi boshqaruvga o'tmoqda. Kompyuterda sun'iy intellekt, sun'iy ong shakllandi. Endi ekspert tizimlari faqat buyruqlarnigina bajarmaydi, balki ongli ravishda faoliyat olib bormoqda. Keyingi yillarda sun'iy til, sun'iy intellekt tushunchalari faol qo'llanmoqda. Bir qator sun'iy intellektlardan foydalanilmoqda. Internet tizimida keng qo'llanayotgan sun'iy intellektlardan biri ChatGPT nomli sun'iy intellekt bo'lib, GPT (Generative Pre-trained Transformer) arxitekturasiga asoslangan OpenAI tomonidan ishlab chiqilgan katta til modelidir. Bu sun'iy intellekt tabiiy til modellari asosida insonning fikrlash tarziga muvofiq javoblar tizimini yaratish uchun

mo'ljallangan. Bu sun'iy til insonlar bilan muloqot qilish, suhbatlashish imkonini beradi. ChatGPT internetdagi ingliz tilidagi matnlarning katta hajmdagi ma'lumotlar bazasiga asoslanadi, jarayonning bir necha bor takrorlanishi natijasida tilning xususiyatlari va tuzilmalarini o'rganish, til xususiyatlarini o'zlashtirish va inson bilimi, madaniyatini chuqur tushunish imkonini beradi. ChatGPT:

- 1) AI (sun'iy intellekt) modeli hisoblanadi;
- 2) keng ko'lamli savollarga javob beradi;
- 3) turli mavzularga oid ma'lumot bera oladi;
- 4) inson bilan muloqot qila oladi;
- 5) doimiy ravishda rivojlanib boradi va takomillashtiriladi;
- 6) insonga ma'lumot olishda yordam beradigan, muammolarni hal qilish va o'zaro yanada samarali muloqot qilishda yordam beradigan kuchli vositadir.

Amalda qo'llanish jarayonida ChatGPT foydalanuvchilardan ko'proq ma'lumot va fikr-mulohaza oladi.

ChatGPTga ingliz tilidagi 100ta omonimni topish vazifasi yuklanganda, topshiriq deyarli xatosiz bajariladi. Sun'iy intellekt ingliz tilidagi omonimlarning ma'nosini farqlab, bir-biriga oppozitsiya holatida ajratib beradi:

Here are 100 examples of homonyms in English:

1) *bank (financial institution) – bank (river bank)*; 2) *bear (animal) – bear (to carry)*; 3) *bow (bend forward) – bow (for arrows)*; 4) *can (able to) – can (container)*; 5) *close (nearby) – close (shut)*; 6) *date (fruit) – date (day/month/year)*; 7) *fair (just) – fair (carnival)*; 8) *file (folder) – file (tool)*; 9) *lead (metal) – lead (to guide)*; 10) *lie (untruth) – lie (to recline)*.

Turk tilidagi 100ta omonimni ajratish so'ralganda ayrim xatolarga yo'l qo'ygan holda ma'lumot beradi:

1) *banka (finansal kurum) – banka (nehir kenari)*; 2) *baş (vücut bölümü) – baş (başlamak)*; 3) *bay (erkek) – bay (koy)*; 4) *beyaz (renk) – beyaz (un)*; 5) *can (yaşam) – can (kutu)*; 6) *dava (mahkeme olayı) – dava (çanta)*; 7) *değişim (farklılaşma) – değişim (para bozdurma)*; 8) *düş (hayal) – düş (düşmek)*; 9) *el (vücut bölümü) – el (ölçü birimi)*; 10) *ev (konut) – ev (işareti)*.

O'zbek tilidagi 100ta omonimni ajratish so'ralganda butunlay xatoga yo'l qo'yadi: 1) *qal'a – fortress (himoya qal'asi), qal'a – palace (qasr)*; 2) *boshi – beginning (nimaningdir boshlanishi), boshi – head (tana a'zosi)*; 3) *oq (rang) – white, oq – learn (o'qimoq)*; 4) *qo'ziq – ear (quloq), qo'ziq – ankle (tovon)*; 5) *ko'z – eye, ko'z – spring (bahor, sakrash)*; 6) *to'q – round (aylana shaklidagi jarayon), to'q – straight (to'g'ri)*; 7) *qulupnay – milkmaid (sutga bog'liq), qulupnay – type of shoe (oyoq kiyim turi)*; 8) *tosh – stone, tosh – weight (og'irlik)*; 9) *qiziqtirg'u – curiosity*

(любопытство), qiziqtirg'u – type of bird (вид птицы); yurak – heart, yurak – pear (nok).

ChatGPTning o'zbek tilidagi omonimlarni ajratishda unilarni farqlamasligi kuzatiladi: *qo'sh* so'zini *qush* bilan almashtiradi: *qo'shquloq* – type of bird. Ko'p ma'noli so'zlarni ham omonim sifatida ajratish hollari uchraydi: *boshi* – beginning (nimaningdir boshlanishi), *boshi* – head (tana a'zosi).

O'zbek tilida omonim sifatida ajratilgan 100ta shakldosh juftlikdan bor-yo'g'i uchtagina ChatGPT tomonidan to'g'ri tanlangan: *ko'k* – blue, *ko'k* – sky (osmon); *qo'y* – sheep; *qo'y* – put; *qo'y* – sheep, *qo'y* – fire.

Sun'iy intellektda o'zbek tilidagi mulqot kam bo'lgani uchun, o'zbek tilidagi ma'lumotlar bazasi kam o'zlashtirilgani bois ChatGPT o'zbek tilidagi omonimlarni farqlay olmaydi.

Avtomatik tarjimada samaradorlikning yuqori bo'lishiga tabiiy tillarning ayrim jihatlari – polisemiya (ko'pma'nolilik), omonimlik, frazeologizmlar, idiomalar, paremiyalar, troplar to'sqinlik qiladi. Shularni istisno qilganda, hozirda avtomatik tarjima yo'nalishida yuqori samaradorlikka erishilgan. Hatto hozirda faqat avtomatik tarjima yo'nalishiga bag'ishlangan saytlar ham yaratilgan. Bu avtomatik tarjimaning keng qamrovda taraqqiy etayotgan yo'nalishlardan ekanligini ko'rsatib turibdi [Xolmanova,2019:140].

Polisemiya va omonimiya o'zbek tilining tabiatiga xos hodisalardan bo'lib, axborot uzatishdan tashqari tilning emotsional-ekspressiv funksiyasini namoyon etishda ahamiyatlidir.

Omonimlik o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlaridan bo'lib, undan nafaqat tushunchalarni ifodalashda, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, tafakkurni o'stirishda amalda foydalanib kelingan. Hazrat Alisher Navoiy omonimlik asosidagi tajnis san'ati va uning tuyuq janridagi o'rnini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan tahlil qilib bergan. Tuyuq janrini “turkiy xalqlarning xos ash'ori” deb ataydi. Turkiy xalqlarning “baland idrok”, “tezfahm”lik stereotiplarini shakllantirishda tuyuq janrining o'ziga xos ahamiyatini ko'rsatib bergan [Xolmanova, 2022:].

Hozirgi o'zbek tili ta'limida omonimlarni o'qitishning amaliy ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi:

1) omonimlarni o'zlashtirish miya faoliyati, tafakkur qobiliyatining takomillashuvini ta'minlaydi. Mumtoz ma'naviy merosimizdagi omonimlar ishtirokidagi matnlar fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda o'ziga xos o'rin tutgan;

2) omonimlar matn badiyatini ta'minlashda asosiy lingvistik tasvir vositalaridan hisoblanadi;

3) omonimlar fikrni yashirin ifoda etishda va ishora qilishda amaliy ahamiyatga ega.

M.V. Kopotev, A. Mustayokilar hozirgi tilshunoslikda korpus asosidagi yondashuvning ahamiyatini bir qator misollar orqali ko'rsatib berishar ekan, shunday yondashuvlarning bir usuli sifatida kollokatsiyalar (ya'ni leksemalar birikmasi) tadqiqi hozirda korpus tadqiqotlarining eng ommabop mavzularidan biri bo'lib qolayotganligini ta'kidlashgan [Kopotev, 2008:12].

**Oshiq** omonimlari ishtirok etgan matnlarni kompyuter dasturi (Google translator)da tarjima qilib ko'rilgan<sup>49</sup>:

*1. Oyoqiz bu qizga uzoq tikilgach, uni ashula va dutor oshig'i bo'lsa kerak, deb o'yladi. Долгое время уставившись на девушку, медвед подумал, что она влюблена в пеню и дутар.*

Hozirgi ingliz tilida turkum omonimiyasini bartaraf etish uchun qurshovdan (oldin yoki keyin kelgan so'zdan: правые и левые коллокаты) foydalaniladi. Birikma so'zning qaysi turkumga mansubligini aniq ko'rsatib turadi [Bogdanova, 2010].

Kollokatsiy (правые и левые коллокаты – biz bu usulni “semantik qurshov” deb nomladik. Chunki kollokatsiyalar, ya'ni so'z birikmalari ma'no valentligiga asoslanib, omonimlarning ma'nolari birikuvning har ikki a'zosi semantik qurshovida reallashadi) usulidan o'zbek tilidagi omonim so'zlarni ajratishda foydalanish mumkin. Bu usul **oshig** omonimi misolida tahlil qilingan.

№	<b>Oshiq omonimi ishtirokidagi kontekst</b>	<b>Oshiq so'zidan oldingi yoki keyingi qism</b>	<b>Oshiq leksemasi turkumi va ma'nosi</b>
1.	<i>Oyoqiz bu qizga uzoq tikilgach, uni ashula va dutor oshig'i bo'lsa kerak, deb o'yladi.</i>	<i>dutor ø → oshig'i+bo'lsa; oshig'i+bo'lsa+g.v. → 0</i>	shaxs oti (sh.o), “mehr sohibi”

Bu o'rinda **0** – qismning mavjud emasligi, **ø** – grammatik shaklning belgisiz ekanligini, **g.sh** – grammatik shaklni, **g.v.** – grammatik vositani bildiradi.

Omonimiya hodisasi turkiy tillarning o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblanib, badiiy san'at darajasiga ko'tarilgan. Tuyuq, askiya janri shakldoshlik hodisasiga asoslanadi. Tajnis, iyhom san'atlari shakldoshlik asosida yuzaga chiqadi.

Omonimlardagi bir xil shakl va har xil mazmun tabiiy tilni qayta ishlashda, o'zbek kompyuter-axborot uslubini ishlab chiqishda muammolar tug'diradi. Mazkur muammo kompyuter lingvistikasining tayanch usullaridan biri hisoblangan teglash (razmetkalash) orqali bartaraf etiladi.

<sup>49</sup> Рахмонова А. Ўзбек тили миллий корпусини яратишда компьютер усуллари.-Филол. фан. фалс. док.-ри (PhD) автореф. –Тошкент, 2021.

Razmetkalarni ikkiga ajratish mumkin. 1. Xalqaro razmetkalar. 2. Milliy tilda qabul qilingan razmetkalar. Xalqaro miqyosda qabul qilingan maxsus belgilar tizimi tushunchalarni umumiy tarzda kodlashga xizmat qiladi.

Milliy tilda yaratilgan korpuslar shu millat ijtimoiy doirasida foydalaniladi. Bunday korpuslarning maqsadi milliy til sohibiga shu tilga oid matn mazmunini, tushunchalar va terminlarni yetkazishni maqsad qiladi. Shu bois milliy korpuslarda milliy til asosidagi razmetkalarni qo'llash ijobiy natija beradi.

Razmetkalar qo'yishda tilning o'ziga xos xususiyatlari ham e'tiborga olinadi. Masalan, o'zbek tilidagi omonimlarni farqlash uchun maxsus teglar talab qilinadi. O'zbek tilidagi matnlarda omonimlarni farqlashda kodlardan, simvollardan, turkumni bildiruvchi teglardan foydalanish talab etiladi. Buning uchun izohli lug'atlarda qo'llanadigan rim raqamlaridan teg sifatida foydalanish mumkin. Faqat rim raqamlarini qat'iy tarzda belgilab olish kerak bo'ladi.

I –ot, II–fe'l, III–sifat, IV–ravish.

O'zbek tilida ot-fe'l omonimligi ko'pligi darajasiga ko'ra birinchi o'rinda turadi (tut I –daraxt, tut II –harakat). Ot-sifat omonimligi (chanqoq I “tashnalik” – chanqoq III “tashna”) yoki fe'l-sifat omonimligi (yot II –harakat, yot III – “begona”) keyingi o'rinda turadi. Ot-ravish omonimligi uchramaydi. Sifat-ravish-fe'l omonimligi kam uchraydi: tik II harakat, tik III “qiya”, tik IV “to'ppa-to'g'ri”.

Oshiq omonimi quyidagicha teglangan: oshiq I –“ishq sohibi”; oshiq I – “tana qismi”, oshiq I – “o'yin nomi”; oshiq II– “shoshmoq”; oshiq III– “ortiq”.

Bir turkumga oid so'zlarni farqlash zarurati omonimlar uchun tanlangan teglarning cheklangan tomonini ko'rsatadi. Omonimik qatori a'zolarini farqlash uchun yana maxsus belgi talab qilinadi: oshiq I –“ishq sohibi”; oshiq I – “tana qismi”, oshiq I – “o'yin nomi”. Bir xil teglangan omonimlarni tarjima dasturi yana farqlamaydi. Bu omonimik shakllarga qo'shimcha ravishda maxsus belgilar qo'yib chiqish kerak bo'ladi: oshiq **Ish**–“ishq sohibi”; oshiq **Iz** – “hayvon tanasi qismi” (tananing bu qismi umurtqali jonzotlarda, xususan, insonda ham bo'lishidan qat'iy nazar so'z anglatgan tushuncha faqat tuyoqlilarga nisbatan xoslanib qolgan. Shu bois hayvonlarga xoslanish belgisini ifodalashda z (zoonim) razmetkasidan foydalanilgan), oshiq **Iō**<sup>50</sup> – “o'yin nomi”.

**Tom** omonimini quyidagi teglar orqali farqlash mumkin:

**Tom I** – “uyning, binoning ustini bекitib turuvchi tepa qismi”;

**Tom I** – “bo'lim”, “bo'lak”, “qism, “jild”.

**Tom II** – “suyuqlik tomchisining pastga yo'nalgan harakati”.

**Tom III** – “to'la, to'liq, butun”; “mukammal”.

<sup>50</sup> Халқаро стандартларга мувофиқ тэглари беришда лотин алифбосига асосланилди.



tom I – “uyning, binoning ustini bekitib turuvchi tepa qismi”; tom I – “bo‘lim”, “bo‘lak”, “qism, “jild”; <tom **Iu**>–“uyning tepa qismi”; <tom **Ij**>.

Kompyuter dasturi omonimik shakllardan teg asosida belgilangan tegishli so‘zni ajratgan holda tarjima qiladi.

Omonimlar kompyuter-axborot uslubida muammolarni yuzaga keltirishi, ayrimlar taklif qilganidek, ulardan voz kechishni bildirmaydi. Omonimlik bilan bog‘liq muammoni bartaraf etishning turli usullari mavjud. Dunyo xalqlari bu muammoni bartaraf etishning turli yo‘llarini qidirib topmoqda. Jumladan, Xitoy tiliga xos xususiyatlardan biri bo‘lgan omonimiya uning butun tarixiy taraqqiyot bosqichida muhim o‘rin tutadi. Hozirgi kunda xitoy ierogliflarining keng imkoniyatlarini hisobga olib, omonimlar asosida kompyuter o‘yinlari yaratilmoqda.

Xitoy tilida omonimiyaning yuqori darajada ekanligi ko‘pgina harflarni qisqartirish usulidagi abbreviaturalarning bir xil shaklda bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Masalan, zt qisqartmasi *zhuǎntiē* “repost”, *zhūtóu* (so‘zma-so‘z tarjimasi: “cho‘chqa bosh”) “ahmoq” so‘zlarini ifoda etadi [Kislov, 2017:75]. Xitoy kompyuter lingvistikasida raqamlar ko‘p ma‘noliligi, ko‘p funksiyaliligi, omonimligi kuzatiladi. Xitoyliklar kompyuterda raqamlardan faol qo‘llanuvchi leksik birliklarni ifodalashda foydalanmoqda:

5 wǔ – 我 wǒ “men”;

0 líng– 你 nǐ “sen”;

6 liù – 了 “le” suffiksi yoki yuklamasi.

88 bābā – 拜拜 báibái “Xayr! Qani (davay)!” (ingliz. *bye-bye!*).

995 jiùjiù– 救救我 jiùjiù wǒ “Meni qiyin vaziyatdan qutqar!”;

7456 qīsìwǔ– 气死我了 Qīsìwǒle “Meni qidir (moq)”;

596 wǔwǔ– 我走了 Wǒzǒle “Men ketyapman”;

1798 yī qǐ jiùbā – 一起走吧 Yīqǐ zǒu ba “Давай пойдём вместе”;

201314 èrlíngyīsānyī– 爱你一生一世 ài nǐyīshēng yīshì “Meni seni umrbod sevaman”.

Xitoy tiliga xos omonimlik raqamlarda ham aks etadi:

4 sì – svyazki 是 shì “bo‘lmoq, hisoblanmoq”, 思 sī “o‘ylamoq, sog‘inmoq” 死 sǐ “o‘lasi, dahshat”;

2 èr – 愛 ài “sevmog”, 饿 è “och” [Kislov,2017:72-86; Xolmanova, 2019:128].

O‘zbek tilidagi omonimlik bilan bog‘iq muammoni bartaraf etish maqsadida maxsus teglar tizimi ishlab chiqilgan<sup>1</sup>.

“O‘zbek tili omonimlari uchun milliy teglar lug‘ati” yaratilgan<sup>2</sup>. Lug‘atda bir turkumdagi va turli turkumdagi omonimlarning teglari keltirilgan bo‘lib, shakldosh so‘zlar ma’nosini to‘g‘ri tushunish imkonini beradi.

<b>BURUN I</b> (3-sh. birl. <b>burni</b> ) Hidlash, hid bilish a’zosi; shu a’zoning tashqi qismi.	< <b>BURUNianat.</b> > <sup>3</sup>
<b>BURUN II</b> [3-sh birl. <b>burni</b> ] <i>geogr.</i> Qurukdikning suv havzasiga ko‘proq turtib kirgan cho‘ziq qismi.	< <b>BURUNIIgeog.</b> >
<b>BURUN III</b> <i>rvsh.</i> Ilgari, ilgari, o‘tgan vaqtlarda.	< <b>BURUNIIIrvsh.</b> >

Omonimlar ma’nolarini kollokatsiy usulida hamda teglar asosida farqlash matnlar korpusini shakllantirishda, tarjima dasturlarining shakl va mazmun jihatidan sifatli bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda sun’iy intellektlarning ishlash prinsiplarini takomillashtirishda muhim qiymat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abdurahmanova M., Raxmonova A. O‘zbek tili omonimlari uchun milliy teglar lug‘ati. –Toshkent, 2022.
2. Богданова С.Ю. Исследование слова и предложения компьютерными методами // Слово в предложении: кол. монография / Под ред. Л.М. Ковалевой (отв. ред), С.Ю. Богдановой, Т.И. Семеновой. – Иркутск: ИГЛУ, 2010.
3. Копотев М.В., Мустайоки А. Современная корпусная русистика// Slavica Helsingiensia. Инструментарий русистики: корпусные подходы. –Хельсинки, 2008. –С.10-13.
4. Рахмонова А. Ўзбек тили миллий корпусини яратишда компьютер усуллари.- Филол. фан. фалс. док.-ри (PhD) автореф. –Т.,2021.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. I –680 б.; II– 672 б.; III – 688 б.; IV.–Т., 2008. -608 б.; V – 592 б.

<sup>1</sup> Рахмонова А. Ўзбек тили миллий корпусини яратишда компьютер усуллари.-Филол. фан. фалс. док.-ри (PhD) автореф. –Тошкент, 2021.

<sup>2</sup> Abdurahmonova M., Raxmonova A. O‘zbek tili omonimlari uchun milliy teglar lug‘ati. –Toshkent, 2022.

<sup>3</sup> <**BURUNianat.**>Bunda dastlab omonim so‘z keltirildi, keyingi rim raqami omonimni farqlovchi asosiy belgi sifatida olindi, undan keyin omonimning ma’nosini ifodalovchi so‘z yoki qisqartma keltirildi.Misolllar “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” asosida berildi: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. -Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. I –680 б.; II– 672 б.; III – 688 б.; IV - Тошкент, 2008. -608 б.; V – 592 б.